JAHON VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA BOLA OBRAZI. CHINGIZ AYTMATOVNING “OQ KEMA” ANTUAN DE SENT-EKZYUPERINING “KICHKINA SHAHZODA” ASARLARI MISOLIDA

Abdullayeva Gulnoza

Filologiya fanlari doktori, katta o‘qituvchi

Soliyeva Gulshanoy

Farg‘ona Davlat Universiteti talabasi

Anotatsiya

Mazkur maqolada jahon va o‘zbek adabiyotida bola obrazining badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” hamda Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarlari misolida bola obrazining falsafiy va ramziy xususiyatlari ochib beriladi.

Tadqiqot jarayonida bola obrazining poklik, beg‘uborlik, haqiqatparastlik timsoli sifatidagi o‘rni, shuningdek, kattalar dunyosidagi ijtimoiy va ma’naviy muammolarni yoritishdagi roli yoritilgan. “Oq kema” asarida bola obrazi fojeaviy ruhda tasvirlanib, mehrsizlik va adolatsizlik oqibatlari ko‘rsatiladi, “Kichkina shahzoda”da esa bola obrazi orqali insoniy qadriyatlar, muhabbat va do‘stlik g‘oyalari ilgari suriladi.

Maqolada ikki asar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Natijada bola obrazi adabiyotda inson ruhiyatini chuqur ochib beruvchi, muhim falsafiy xulosalarga olib keluvchi vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar

bola obrazi, badiiy adabiyot, falsafiy talqin, ramziy obraz, mehr-oqibat.

Badiiy adabiyotda bola obrazi alohida o‘rin tutadi. Chunki bola — poklik, beg‘uborlik, samimiyat va haqiqat timsolidir. Adiblar ko‘pincha jamiyatdagi muammolarni, insoniy qadriyatlarning yo‘qolishini aynan bola nigohi orqali ochib beradilar. Bola obrazi orqali inson ruhiyati, orzu-intilishlari va ichki kechinmalari yanada ta’sirchan ifodalanadi.Jahon va o‘zbek adabiyotida bola obrazi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, XX asr adabiyotida bola obrazi falsafiy va ramziy ma'nolar bilan boyitiladi.Chingiz Aytmatov va Antuan de Sent-Ekzyuperi asarlarida bola obrazi falsafiy va ramziy ma’noda yoritilgan. Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi va Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asari turli adabiy makon va davr mahsuli bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy jihat — inson ruhiyati, bolalik pokligi va hayot ma’nosi haqidagi chuqur falsafiy mushohadalardir. Bu ikki asarni qiyoslash orqali nafaqat badiiy uslub, balki mualliflarning dunyoqarashi va insoniyatga bo‘lgan munosabatini ham anglash mumkin.

Chingiz Aytmatovning asaridagi bola ismsiz, yolg'iz va himoyasiz bo'lib, kattalar dunyosidan qochib o'z tasavvur dunyosida yashaydi. Uning hayolini band etgan yagona narsa uning ertaklari edi. Ayniqsa, “Ona bug'u” haqidagi rivoyatga butun borlig'i bilan jshongan. Muallif asarda bola obrazi orqali jamoyatdagi muammolar - ma'naviy inqiroz, befarqlik va shavqatsizlikni ochib beradi. Asardagi oilaviy konfliktlarni aytib o'tish lozim. Bo'key xola va uning eri farzandga zor bo'lsa bola esa yolg'iz, ota-ona mehriga muhtoj. Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda”asarida esa bola kattalar dunyosini ramziy obrazlar orqali (qirol, ishbilarmon, mayxo‘r, geograflar) tanqid qiladi — ular hayotning asl mohiyatini emas, tashqi ko‘rinish va foydani qadrlashlaridan ranjidi. Har ikkala asarda ham mualliflar kattalarning ma'naviy tanazzulini fish etadi.

Tabiat va inson munosabati masalasi ham asarlarda muhim ahamiyat kasb etadi. “Oq kema”da bola uchun tabiat-muqaddas, u bilan uyg‘un yashash kerak. Tabiatga nisbatan zo‘ravonlik (masalan, muqaddas bug‘ularning o‘ldirilishi) insoniylikning yo‘qolishiga olib keladi. “Kichkina shahzoda”da tabiat obrazlari (gul, yulduzlar, sahro) inson qalbining ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashadi. Ch.Aytmatovda tabiat — axloqiy mezon, Ekzyuperida esa ruhiy-falsafiy timsol sifatida namoyon bo‘ladi.

Bolalik va kattalar dunyosi qarama-qarshiligi ikki asarda ham yetakchi g‘oyalardan biridir. Ular kattalarning haqiqatlarini tan olmaydilar. Kattalar faqat raqamlar va o'z manfaatlarini o'ylashlarini qoralaydilar. Go'zallik faqat qalb bilan his qilinishini anglatmoqchi bo'lishadi.

Ramziylik va badiiy tasvir vositalari jihatidan ham asarlar o‘xshash, ammo ifoda shakli farqli. “Oq kema”da oq kema — bolaning najot, qutulish, baxt haqidagi orzusining ramzi hisoblanib, uning uchun baxtga eltuvchi yagona yo'ldek ko'rinadi. “Kichkina shahzoda”da esa gul — muhabbat va mas’uliyat, tulki — do‘stlik va sadoqat, yulduzlar esa orzu va umid ramzlaridir. Bu yerda ramzlar yanada umuminsonga xos, global ma’no kasb etadi. Janr va syujet jihatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, “Oq kema” realistik qissa bo'lib, ijtimoiy anniq konfliktlar ko'zga tashlanadi. Voqealar izchil davom etib asar fojiali yakunlanadi. Bolaning orzulari ro'yobga chiqmaydi, aksincha, chilparchin bo'ladi. Kattalarga nisbatan nafrati ortadi. Muammo yechilmaydi. Bu orqali muallif hayot shunday davom etsa jamiyat halokatga yuz tutishini ko'rsatib beradi. “Kichkina shahzoda” esa ertaksimon-falsafiy asar bo‘lib, syujeti sayohat shaklida qurilgan, unda mantiqiy ketma-ketlikdan ko‘ra ramziy uchrashuvlar muhimroq. Yakuni esa fojiaviy ohangga ega bo‘lsa-da, unda umid va ruhiy yuksalish hissi saqlanadi. Ekzyuperi insonni ichki dunyosiga nazar tashlashga, “ko‘z bilan emas, yurak bilan ko‘rish”ga undaydi. Ya’ni biri ijtimoiy-fojeaviy realizm orqali, ikkinchisi falsafiy-ramziy usul orqali bir xil haqiqatni turlicha yo‘l bilan yetkazadi.

Xulosa. Badiiy adabiyotda obrazi insoniyatning eng pok va asl mohiyatini ifodalovchi kuchli badiiy vositadir. Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asarida bola obrazi orqali jamiyatning shafqatsizligi ochib berilgan bo‘lsa, Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarida bola insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi falsafiy timsol sifatida talqin etiladi.

Har ikki asar ham o‘quvchini o‘ylashga, qalb ko‘zi bilan qarashga undaydi. Ular orqali biz shuni anglaymizki, bolalik – bu nafaqat yosh davri, balki inson qalbining eng toza holatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
2. Ibrohim Haqqulov. Adabiy tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 1987.
3. Naim Karimov. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Abdug‘afur Rasulov. Adabiy aloqalar va qiyosiy tahlil masalalari. – Toshkent: Fan, 1995.